Xalq deputatlari Taxiatosh tumani Kengashi
QARORI

Xaliq deputatlari Taqiyatas rayonliq Ken'esi
SHESHIMI

2023 - yil 29 - dekabr VI-71-198-13-215-K/23 Taxiatosh tuman hokimligi

Taxiatosh tumanining 2024-yilgi byudjet parametrlarini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi (“O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami”, 2013-yil 31-dekabr, 52-(I)-son)ning 28 va 100-moddasining bajarilishini hamda Qoraqalpogiston Respublikasi Joqorgi Kengesining 2023-yil 26-dekabr kungi 360/XLVII-sonli qarorini ta’minlash maqsadida, 2024-yil uchun Taxiatosh tumani mahalliy byudjetining daromadlar va xarajatlar miqdori, aylanma kassa xarajati miqdori va byudjetga tegishli boshqa ko‘rsatkichlarni qarab chiqib, Xalq deputatlari Taxiatosh tumani Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. Taxiatosh tumani mahalliy byudjetining 2024-yil daromadlar xarajatlari bo‘yicha asosiy ko‘rsatkichlarining kutilayotgan ijrosi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Taxiatosh tumani mahalliy byudjetining 2024-yil uchun Taxiatosh tumani byudjetining daromadlar prognozi **1-ilovaga muvofiq**, Qoraqalpog‘iston Respublikasi mahalliy byudjetining 2024-yildagi asosiy ko‘rsatkichlari **2-ilovaga muvofiq,** Umumdavlat soliqlaridan Taxiatosh tumanining mahalliy byudjetlariga ajratmalar me’yorlari **3-ilovaga muvofiq,** 2024-yil uchun Taxiatosh tumani byudjetining daramodlari va xarajatlari prognozlari **4-ilovaga muvofiq,** Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjetidan, Taxiatosh tumani mahalliy byudjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorlari **5-ilovaga muvofiq, Taxiatosh tumani mahalliy byudjetlarining zaxira jamg‘armalari 6-ilovaga muvofiq, Taxiatosh tumani mahalliy byudjetlarida yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdorlari 7-ilovalarga muvofiq** tasdiqlansin.

3. Tuman moliya bo‘limi belgilangan tartibda tegishli mahalliy byudjetga xarajatlar hamda byudjet ssudalari (daromad va xarajatlar orasidagi vaqtinchalik kassa ayirmachiliklarini qoplash uchun) ajratishda, ularning miqdorlarini tuman bo‘yicha barcha soliqlar hamda boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushishidan, shuningdek,

ish haqi (yagona ijtimoiy to‘lov bilan), nafaqalar va ularga tenglashtirilgan to‘lovlar bo‘yicha byudjet xarajatlari birinchi navbatda so‘zsiz moliyalashtirilish zaruriyatidan kelib chiqib, aniqlashtirish huquqi berilsin.

4. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (A.Amanov) tegishli tashkilot rahbarlari bilan birgalikda:

- byudjet daromadlarining tasdiqlangan ko‘rsatkichlarini bajarilishini ta’minlash;

- tuman hokimligining tegishli byudjetlar daromadlari va xarajatlari balansligiga ta’sir ko‘rsatuvchi normativ-huquqiy hujjatlarni moliyaviy va iqtisodiy ekspertizadan o‘tkazish maqsadida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligiga taklif berish;

- hududlarda soliq solish bazasini kengaytirish hamda moliyaviy holatini yaxshilash bo‘yicha zarur choralar ko‘rish;

- byudjet mablag‘larining maqsadli ishlatilishi ustidan qattiq nazorat o‘rnatish topshirilsin.

5. Tuman soliq inspeksiyasi (A.Kabulova) tuman mahalliy byudjetining daromadlar qismining soliq turlari bo‘yicha oshirib borilishini ta’minlasin.

6. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (J.Saparov)ga;

Taxiatosh tumani mahalliy byudjetning 2024-yil davomida mahalliy byudjet xarajatlarining qisqarishi natijasida paydo bo‘lgan qo‘shimcha mablag‘lar tushumi hisobidan tumanning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun zarur o‘zgarishlar kiritib borish;

- byudjetdan mablag‘ oluvchilarning byudjetdan moliyalashtirishni ta’minlashni chuqur tahlil qilib borish;

- zarur hollarda byudjet mablag‘larining saqlanishini asossiz deb topilgan va byudjet mablag‘larining maqsadsiz ishlatilish holatlari sodir bo‘lgan byudjet korxonalarini qisqartirish masalalari bo‘yicha tuman hokimligiga va tegishli boshqarmalarga takliflar kiritish;

- Xalq deputatlari Taxiatosh tumani Kengashiga mahalliy byudjetning bajarilishi bo‘yicha har chorakda hisobot kiritish;

- tuman g‘aznachilik bo‘linmasi bilan birgalikda byudjet mablag‘larini maqsadli foydalanish hamda ularning maqsadsiz ishlatilishining oldini olish ustidan g‘aznachilik ijrosi orqali qat’iy nazoratga olish topshirilsin.

7. Xalq deputatlari Taxiatosh tumani Kengashining 2022-yil 29-yanvar kungi “Xalq deputatlari Taxiatosh tumani Kengashining 2022-yil 31-dekabr kungi “Taxiatosh tumanining 2023-yilgi byudjet parametrlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-53-163-13-215-K/22-sonli qaroriga qo‘shimcha va o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida”gi II-56-29-13-215-K/23-sonli qarori 2023-yil 31-dekabr kunidan o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

8. Mazkur qaror tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

9. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investisiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (Artikov) zimmasiga yuklatilsin.

10. Ushbu qaror qabul qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

Xalq deputatlari Taxiatosh tumani Kengashi Raisi v.v.b **R.Xidirbayev**

Xalq deputatlari Taxiatosh tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-71-198-13-215-K/23-son qaroriga
1-ilova

2024-yil uchun Taxiatosh tumani byudjetining daromadlari prognozi

№	Daromad turi	Taxiatosh tumani
	Jami daromadlar	**42 196 784**
I.	**Rag‘batlantiruvchi (стимулирующие) daromad**	**0**
	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	
	Ajratma me’yori	
1.	Mahalliy byudjetga	0
	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	
	Ajratma me’yori	
2.	Mahalliy byudjetga	0
II.	**Biriktirilgan daromadlar**	**29 103 000**
	Tuman va shaharlarga biriktirilgan	**16 060 000**
1	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	2 965 000
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i (ITD)	505 000
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	8 730 000
4	Yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq noruda	140 000
5	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	3720 000
	Viloyat va tuman (shahar)lar byudjetlari o‘rtasida taqsimlanadigan daromadlar	**12 420 000**
1	Benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiyasidan soliq (AZS)	
	Ajratma me’yori	
	Mahalliy byudjetga	0
2	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	27 133 000
	Ajratma me’yori	***0***
	Mahalliy byudjetga	0
3	Yuridik shaxslar yer solig‘i	9 018 000
	Ajratma me’yori	***100***
	Mahalliy byudjetga	9 018 000
4	Aylanmadan olinadigan soliq	3 402 000
	Ajratma me’yori	***100***
	Mahalliy byudjetga	3 402 000
5	Yig‘imlar	
	Ajratma me’yori	
	Mahalliy byudjetga	0
	Viloyat byudjetiga	**623 000**
1	Davlat bojlari	
2	Davlat tashkilotlari foyda solig‘i	
3	Ijara to‘lovlari	
4	Xususiylashtirish	1 246 000
	Ajratma me’yori	***50***
	Mahalliy byudjetga	623 000
5	Jarimalar	
6	Boshqa tushumlar	
III.	**Taqsimlanuvchi daromadlar (formula bo‘yicha)**	**13 093 784**
	Aholi soni (ming kishi)	*76 435*
15.	Aksiz solig‘i alkogol uchun (v.b pivo ham)	5 675 729
16.	Aksiz solig‘i mobil tarmoq uchun	2 286 195
17.	Tabiiy gaz uchun qat’iy belgilangan stavkadagi aksiz solig‘i	5 131 860
	Ma’lumot uchun: 2022-yil parametr	*33 354 367*

	JAMI XARAJATLAR	**121 173 056,0**
	TRANSFERTLAR	**92 070 056**

Xalq deputatlari Taxiatosh tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-71-198-13-215-K/23-son qaroriga
2-ilova

Qoraqalpog‘iston Respublikasi mahalliy byudjetining 2024-yildagi asosiy ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkichlar		Taxiatosh tumani
	Xarajatlar – jami	**121 173.1**
1.	**Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga xarajatlar – jami**	**78 556,9**
	shu jumladan:	
1.1	Maorif	**22 464,1**
	- maktabgacha ta’lim	10 818,0
	- umumiy ta’lim	11646,1
	- kadrlar tayyorlash	
1.2	Sog‘liqni saqlash	48 764,6
1.3	Tibbiy-ijtimoiy xizmatlar uchun xarajatlar	
1.4	Madaniyat	1 503,8
1.5	Sport	5 761,3
1.6	Fan	
1.7	Bolali oilalarga va kam ta’minlangan oilalarga nafaqalar va kompensatsiyalar	
1.8	Chernobil falokatini bartaraf etishda qatnashganlarni ijtimoiy himoyalash	
1.9	Davlat mukofotlarini to‘lash bo‘yicha xarajatlar	
1.10	Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga «dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi»	10,0
1.11	Toshkent metropolitenida kunduzi soat 10:00 dan 16:00 gacha bo‘lgan kunduzgi davrda pensionerlarni bepul tashishda va bepul yurish huquqini beradigan yagona guvohnomalar bo‘yicha hisobga olinadigan yo‘lovchilarni tashish natijasida olinmay qoladigan daromadlarni qoplash *(jumladan PQ-5260 xarajatlari)*	
1.12	Shahar passajir transportida ba’zi kategoriyadagi kishilarning bepul yurishlarini byudjetdan qoplash	
1.13	Cheklangan tariflar bo‘yicha yo‘lovchilar va bagajni tashish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatilishi munosabati bilan shahar yo‘lovchi tashish transporti tashuvchilari ko‘radigan zararlarni qoplash, shuningdek, shahar pasajir transportda bepul yurish huquqini beradigan yagona guvohnomalar bo‘yicha hisobga olinadigan yo‘lovchilarni tashish natijasida olinmay qoladigan daromadlarni qoplash	
1.14	Fuqarolarga yetkazilgan zararni qoplash	
1.16	Ijtimoiy ko‘nikma markazlari	53,2
2.	**Iqtisodiyotga xarajatlar**	**21 055,5**
	shu jumladan:	
2.1	Ichki xo‘jalik avtomobil yo‘llarni ta’mirlash xarajatlari	4 000
2.2	O‘simliklar karantini inspeksiyalari xarajatlari	
2.3	Obodonlashtirish	14 026,2
2.4	Ko‘p kvartirali uy-joylarning tutash hududlarini obodonlashtirish xarajatlari	
2.5	Issiqlik ta’minoti tizimi tashkilotlari xarajatlari	
2.6	Ko‘p kvartirali uylardagi lift uskunalarini ta’mirlash va yangilash	
2.8	"Toza hudud" Davlat unitar korxonasi	
2.7	Xo‘jayli va Chalish suv yo‘li texnik uchastkasi	
2.8	Issiqlik ta’minot korxonalariga subsidiyalar	
2.9	Suv xo‘jaligi vazirligi tashkilotlari	1 117,7
2.10	O‘rmon xo‘jaligi tashkilotlari	
2.11	Davlat ekologiya qo‘mitasining hududiy boshqarmalari	
2.12	Fermerlar buxgalteriyasini saqlash xarajatlari	194,9

2.13	Pillachilik va qorako‘lchilikni rivojlantirish qo‘mitasining hududiy bo‘limlarini saqlash xarajatlari	
2.14	Uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligining hududiy bo‘limlarini saqlash xarajatlari	
2.15	Veterinariya qo‘mitasi	862,4
2.16	Sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash	
2.16	Umum foydalanishdagi avtomobil yo‘llarini saqlash va ekspluatatsiya xarajatlari	
2.17	Avtobus yo‘nalishlarining yillik subsidiyalash xarajatlari	
2.18	Mahalliy byudjetlarda hokim yordamchilarining tavsiyalari asosida mahalla infratuzilmasini yaxshilash xarajatlari	854,2
3.	**Markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirishga xarajatlar**	**0**
3.1	Markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirishga xarajatlar	
3.2	Oliy ta’lim tashkilotlarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta’mirlash va jihozlash	
3.2	Maktabgacha ta’lim tashkilotlarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta’mirlash va jihozlash	
3.3	Umumta’lim maktablarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta’mirlash va jihozlash	
3.4	Sog‘liqni saqlash muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta’mirlash va jihozlash	
3.6	Sport muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta’mirlash va jihozlash	
3.7	Madaniyat muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta’mirlash va jihozlash	
3.5	Melioratsiya obyektlari	
3.9	Suv xo‘jaligi tashkilotlarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta’mirlash va jihozlash	
3.8	Oliy ta’lim	
3.6	Ichimlik suvi va kanalizatsiya	
3.11	Boshqa hukumat qarorlari asosida ajratilgan mablag‘lar	
3.7	Mahallalar infratuzilmasini yaxshilash	
4.	**Davlat boshqaruv organlarini saqlash**	**14 420,3**
5.	**Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarini saqlash**	
6.	**Zaxira jamg‘armasi**	**1 140,3**
7.	**Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi**	**6000**
8.	**Boshqa xarajatlar**	
	shu jumladan:	
8.1	Mahalliy byudjetdan moliyalashtiriladigan boshqa muassasalar va tadbirlar	
8.1	Issiq suv va sovuq suv xarajatlarini indeksatsiyalash	
8.2	Advokatlik xizmatlari xarajatlari	
8.3	Ichki va tashqi qarzga xizmat ko‘rsatish xarajatlari	
8.4	Prezident maktablarini qurish uchun jalb etilgan qarz mablag‘larini qaytarish xarajatlari	

Xalq deputatlari Taxiatosh tuman Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-71-198-13-215-K/23-son qaroriga
3-ilova

Umumdavlat soliqlaridan Taxiatosh tumanining mahalliy byudjetlariga ajratmalar me’yorlari

№	Shahar va tumanlar	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	Yuridik shaxslarning foyda solig‘i	Jismoniy shaxslarning daromad solig‘i	Aylanma mablag‘lardan olinadigan soliq	Aksiz solig‘i-benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiyasidan	Yuridik shaxslarning mol-mulk solig‘i	Yuridik shaxslarning yer solig‘i	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	Xususiylashtirish	Davlat ulushi mavjud korxonalarning sof foydasidan
1	Taxiatosh tumani	0	0	0	100	0	0	100	100	50	0

Xalq deputatlari Taxiatosh tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-71-198-13-215-K/23-son qaroriga
4-ilova

2024-yil uchun Taxiatosh tumani byudjetining daramodlari va xarajatlari prognozlari

№	Shahar va tumanlar	Daramodlar	Xarajatlar
1	Taxiatosh tumani	29,1	121,2
Jami		**29,1**	**121,2**

Xalq deputatlari Taxiatosh tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-71-198-13-215-K/23-son qaroriga
5-ilova

Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjetidan, Taxiatosh tumani mahalliy byudjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorlari

№	Hududlar	Tartibga soluvchi transfertlar
1	Taxiatosh tumani	92,1

Xalq deputatlari Taxiatosh tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-71-198-13-215-K/23-son qaroriga
6-ilova

Taxiatosh tumani mahalliy byudjetlarining zaxira jamg‘armalari

T/r	Hududlar nomi	Zaxira jamg‘armalari
	JAMI	**1 140,3**
	shundan	
1	Taxiatosh tumani	1 140.3

Xalq deputatlari Taxiatosh tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-71-198-13-215-K/23-son qaroriga
7-ilova

Taxiatosh tumani mahalliy byudjetlarida yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdorlari

T/r	Hududlar nomi	Miqdori
	JAMI	**767,0**
	shundan	
1	Taxiatosh tumani	767,0